

## **ABU NASR FAROBIYNING BORLIQ HAQIDAGI QARASHLARI**

*DTPI Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Nazirova Nargiza Baxodir qizi .*

*Jo'rayeva Marjona Furqat qizi.*

Annotatsiya Ushbu maqolada Abu Nasr Farobiyning borliq haqidagi qarashlari shuningdek ta'limiy – axloqiy , jamiyat va axloq haqidagi qarashlari va Farobiyning ijtimoiy va falsafiy **qarashlarida**, yagona **borliq** olti bosqichdan iborat bo'lib, ular ayni bir vaqtda barcha mavjud narsalarning ibtidosi sifatida bir-birlari bilan sababiy bog'lanishi batafsil yoritib berilgan .

Kalit so'zlar; Ilmiy – falsafiy , axloq va ta'lim tabiiy – ilmiy , insonparvarlik g'oyalari, gnoseologik qarashlar .

Kirish . Ilim uchun sarflangan har qanday investitsiyalar ortig'i bilan qoplanishiga shubha yo'q .

SH.M.Mirziyoyev.

Olimning fikricha, fanlar va umuman bilimlar **borliqdan** kelib chiqib, **borliqni** uzoq vaqt o'rganish asosida to'planib boradi. ... **Farobiyning** gnoseologik **qarashlari**, ya'ni bilish **haqidagi** ta'limoti ijtimoiyfalsafiy fikr rivoji tarixida alohida o'rinni egallaydi. Ijtimoiy hayot haqidagi fanlar jumlasiga Forobiy shahar-davlat yoki siyosiy fanni (al-madaniyya), huquqshunoslik (fiqh) va musulmon ilohiyotini (kalam) kiritdi. Axloq va ta'lim-tarbiya haqidagi fan (pedagogika) siyosiy fanlarning bir qismini tashkil etib, umumiy baxt-saodatga erishish yo'llarini ko'rsatib berishi lozim. Axloq fani (etika) – bu jamiyat a'zolarining hatti-harakatlari haqidagi bilim bo'lsa, siyosiy fan – umuman barcha jamiyat a'zolarining fe'l-atvori va hatti-harakatlarini boshqarish haqidagi bilimdir. Forobiy fikricha, davlatni boshqarish ikki xil bo'ladi: davlat aholisini haqiqiy yoki xayoliy baxt-saodatga etaklab olib boruvchi. Boshqarish san'ati idora qilishning nazariyasini ham, amaliyotini ham nazarda tutadi. Ularni birga qo'shib [olib borish](#), ayrim olingan har bir

muayyan holatda, davlatni to'g'ri boshqarish imkoniyatini beradi. Kishilarning jamiyatga birlashishi urushlar va kuch ishlatish natijasida hamda odamlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishlari tufayli kelib chiqadi. U kishilarning mavjudligi va kamolot topishi uchun zarurdir<sup>6</sup>. Jamiyat turli xalqlardan tashkil topadi. Xalqlarning o'ziga xos fe'l-atvorlari va xislatlarini Forobiy u yoki bu xalq yashayotgan jo'g'rofiy sharoit xususiyatlari bilan bog'liq ravishda tushuntiradi. Forobiy shahar-davlatlarni fozil yoki orzudagi va johilga bo'ladi. Orzudagisi – bu shunday shaharki, u aholisining o'zaro hamkorligi asosida mavjuddir. SHahar-davlatning ichki va tashqi vazifalari bor. Tashqi vazifasi – bu shahar mudofaasini tashkil qilish va uni tashqi hujumlardan saqlash. Ichki vazifasi – uning aholisining baxt-saodatini ta'minlash. Forobiy boshqaruvning uch shaklini ko'rsatib o'tadi: yakka hokimlik, oz sonli kishilar guruhining boshqaruvi, xalq tomonidan saylangan [eng loyiq shaxsning hokimiyati](#)<sup>7</sup>. Bunda Forobiy uchun hal qiluvchi narsa, boshqaruv shakllarining o'zigina emas, balki uning sog'lom aqlga to'g'ri kelishi yoki kelmasligidir. Kamolotning yuqori cho'qqisiga erishgan jamiyatlarda kasb-hunarni ozodona tanlash imkoniyati bor. Bu erda yakkahokimlik yo'q bo'lib, haqiqiy ozodlik va tenghuquqlik hukmronlik qiladi. Bunday shaharlarning aholisi o'z boshlig'ini saylaydi, ammo uni har qachon hokimiyatdan mahrum qilishi ham mumkin. Bunday shaharlarning boshliqlari o'z faoliyatlarida adolatlilik, teng huquqlik va umumiy farovonlik qoidasidan kelib chiqadilar<sup>8</sup>. Boshliq – bu o'ziga xos muallim bo'lib, o'z o'quvchilarini bilim olishga va baxt-saodatga erishish yo'llarini o'zlashtirishga o'rgatadi. Ammo barcha talablarni bir kishida mujassamlashtirish qiyin, shuning uchun guruh tomonidan bo'ladigan boshqaruvni tashkil etish mumkin. Bunday holatda jamiyatning har bir a'zosi ushbu xususiyatlardan birortasini mujassamlashtirmog'i lozim bo'ladi. Davlat va jamiyatning pirovard maqsadi bo'lgan umumiy baxt-saodatga erishish muammosi Forobiy ta'limotida muhim o'rin tutadi. Bunga yo'l – ilm-fan va ta'lim-tarbiyadir. Haqiqiy baxt-saodatga bilimlarni egallash yo'li vositasida erishiladi. Haqiqiy [baxtga shundagina erishiladiki](#), qachonki, har kandy yomonlik bartaraf qilinib, kishining ruhi va aqli o'zining mohiyatlarini va barcha xayrli, ezgu ishlarni bilishda eng yuqori saviyaga erishib-abadiylikka dahldor bo'lgan dunyoviy aql bilan qo'shib ketsa.

Inson o'lad, ammo uning hayoti davomida erishgan baxti ma'naviy ko'tarinki hodisa bo'lib, zavol topmaydi, balki undan keyin saqlanib qolib, insoniyatga xizmat qilishi mumkin.

Forobiy falsafasining inkor etib bo'lmaydigan [joyi shundaki](#), u nazariy falsafani haqiqiy va asosiy ilm, deb bilib, qolgan barcha fanlarni unga tobe bo'lgan ikkinchi darajali sohalar maqomiga qo'ydi. Falsafalar o'rtasidagi umumiy dunyoqarashlar bilan kifoyalanmay, din bilan falsafani ham ayrim bir qismga joyladi. Uning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar, zero, mohiyat jihatidan falsafa bilan din o'rtasida hech qanday tafovut yo'q. Bunday karash o'z davrida nihoyat [darajada muvaffaqiyat qozonib](#), islomiy falsafaning asosi va usulini belgilab beruvchi fikrlash tarziga aylandi.

Forobiyning ta'limoti Sharqda va Evropada ijtimoiy-falsafiy fikrlarning bundan keyingi rivojida muhim o'rin tutdi. U Basradan chiqqan falsafiy to'garak bo'lgan «Ixvon as-safo» («Sof birodarlar») a'zolari va Abu Sulaymon Mantiqiy, Ibn Miskaveyh, Ibn Bajja, Ibn Tufayl, Maymonid qarashlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Buyuk olim Ibn Sino uni o'zining ustozlari deb hisoblar edi. Abu Nasr Forobiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari. O'rta asr ijtimoiy – falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti Haqidagi ta'imoti ta'lim – tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faydasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiy yirik mutafakkir – «Muallimiy soniy» – «Ikkinchi muallim» deb ataydilar.

Abu Nasr Forobiy (to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzaliq ibn Tarhon al-Forobiy) Hijriy 260 yil (milodiy 873 yil)da Shosh – Toshkentga yaqin

Forob (O'tror) degan joyda Harbiy Hizmatchi oilasida tug'ilgan. Forobda boshlang'ich ta'limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqanda ta'lim olganligi Haqida ma'lumotlar bor. Lekin arab xalifaligining yirik madaniy markazi Bag'dodga xalifalikning turli tomonlaridan kelgan olimlar yig'ilganligi, uning yirik ilmiy markazga aylanganligi tuyfayli Forobiy Ham ilm olish istagida Bag'dodga jo'naydi. Bag'dodda Forobiy o'rta asr fanini, turli fan sohaslarini o'rganadi. Masalan, unga Yunon tilida Abu Bashar Matta (Matta ibn Yunus), tibbiyot va mantiqdan Yuhanna ibn Haylon (Jilon)

ta'lim bergan. Umuman, Forobiy Bag'doda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tabiiyot, Huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug'ullandi, turli tillarni o'rgandi. Abu Nasr Forobiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari. O'rta asr ijtimoiy – falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'imoti ta'lim – tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faydasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyning yirik mutafakkir – «Muallimiy soniy» – «Ikkinchi muallim» deb ataydilar. Abu Nasr Forobiy (to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzaliq ibn Tarhon al-Forobiy) Hijriy 260 yil (milodiy 873 yil)da Hosh – Toshkentga yaqin **Farobiy** (taxallusi; to'liq nomi **Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzaliq ibn Tarxon Forobiy**) (873, Farob shahri — 950, [Damashq](#)) — [O'rta Osiyoning](#) mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgani uchun „al Muallim assoniy“ („Ikkinchi muallim“, [Aristoteldan](#) keyin), „Sharq Arastusi“ nomlariga sazovor bo'ldi. Farobiy [Sirdaryo](#) sohilidagi Farob ([O'tror](#)) degan joyda turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida tavallud topadi. O'sha davrda [Movarounnahrda](#) somoniylar sulolasi hukmronlik qilayotgan edi. Bo'lajak faylasuf boshlang'ich bilimini O'trorda olgandan so'ng, o'qishini Toshkent, Samarqand va Buxoroda davom ettirdi. Farobiy ilmini yanada chuqurlashtirish maqsadida Bag'dodga yo'l oladi. Olim yo'l-yo'lakay Eronning yirik shaharlari Ray, Hamadon, Isfahon va boshqa joylarda bo'ladi. Bag'dodda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridan kelgan talaba va olimlar to'plangan edi. Bu yerda ko'zga ko'ringan olim-u fuzalolar bilan tanishdi, yunon falsafiy maktabi, turli fan sohalari namoyandalari bilan uchrashib, ulardan ilm sirlarini o'rgandi. Masalan, Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870—940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Hiylondan (860—920) esa tibbiyot va mantiq ilmini o'rgandi. Ba'zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan.

Olim 941-yildan Damashkda muhtojlikda kun kechira boshlaydi. Shunga qaramay, ilm bilan shug'ullanadi, falsafa va boshqa fanlar sohasida tadqiqot ishlari olib boradi. U

Aleppo (Halab) hokimi Hamdamid (hukmronlik yillari 943—967) iltifoti va hurmatiga erishadi. U olimlarning homiysi sifatida tanilgan edi. Hokim Forobiyni o‘z saroyiga taklif etadi, lekin, u saroyga bormasdan, erkin hayot kechirishni ma’qul ko‘radi. Shunga qaramasdan, allomaning Halabdagi hayoti sermahsul bo‘ldi, bu yerda o‘zining ko‘plab asarlarini yozdi. Forobiy 949—950 yillarda Misrda, so‘ngra Damashqda yashaydi va shu yerda umrining oxirgi kunlarini o‘tkazadi. U Damashqsagi „Bob assag‘ir“ qabristoniga dafn etilgan. Mavjud ma’lumotlarga qaraganda, Farobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramay, mavjud risolalarining o‘ziyoq uning buyuk olim ekanligidan dalolat beradi. Farobiyning asosiy asarlari: „Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida“, „Falsafiy savollar va ularga javoblar“, „Ensiklopediyadan mantiq bo‘limining bir qismi“, „Taliqot“ (sharhlar), „Inson a‘zolari haqida risola“, „Bo‘shliq haqida maqola“, „Donolik asoslari“, „Falsafaning ma‘nosi va kelib chiqishi“, „Hayvon a‘zolari, funksiyasi va potensiyasi“, „Mantiq to‘g‘risidagi risolaga muqaddima“, „Mantiq ilmiga kirish“, „Ilmlarning kelib chiqishi haqida“, „Musiqqa haqida katta kitob“, „Baxtsaodatga erishuv haqida“, „Masalalar mohiyati“, „Buyuk kishilarning naqllari“, „Ihso alulum“, „Hikmat ma‘nolari“, „Aql to‘g‘risida“, „Ilmlar va san’atlar fazilati“, „Qonunlar haqida kitob“, „Substansiya haqida so‘z“, „Falak harakatining doimiyligi haqida“, „She‘r va qofiyalar haqida so‘z“, „Ritorika haqida kitob“, „Hajm va miqdor haqida so‘z“, „Musiqqa haqida so‘z“, „Fizika usullari haqida kitob“, „Fazilatli xulqlar“, „Fozil shahar aholisining fikrlari“, „Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida“, "Aristotel „Metafizika“ kitobining maqsadi to‘g‘risida" va boshqa Farobiy asarlari 20-asrning 70—80-yillarida Toshkent va Olmaotada „Falsafiy risolalar“, „Mantiqiy risolalar“, „Matematik risolalar“, „Ijtimoiyaxloqiy risolalar“, „Tadqiqotlar va tarjimalar“ nomlari ostida rus tilida nashr etilgan. Farobiy ilk o‘rta asrda, Sharq Uyg‘onish davrida ijod etdi. Bu davr ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi, hunarmandchilik, irrigatsiya inshootlarining yuksalishi, yangi shaharlarning bunyod etilishi, madaniy va ma‘naviy hayotning ravnaq topishi bilan ajralib turadi. IX-X asrlarda ichki va tashqi savdo kuchaydi, ayniqsa, [Hindiston](#), Xitoy, Vizantiya, Afrika mamlakatlari bilan aloqa yo‘lga qo‘yildi. Bu davr qarama-qarshilik va adovatlardan xoli emas edi. Farobiyning falsafiy qarashlarida o‘sha davrning yutuq va

kamchiliklari, murakkab va ziddiyatli jihatlari o‘z ifodasini topdi. Olimning ilmfan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon mutafakkirlari asarlarini sharxlaganligi va ularni yangi g‘oyalar bilan boyitganligidir. [Alloma](#), eng avvalo, Arastu asarlariga sharhlar bitgan, uning naturfalsafiy g‘oyalarining targ‘ibotchisi va davomchisi sifatida tanilgan. Farobiy, shuningdek, Aflotun, Aleksandr Afrodiziyskiy, Yevklid, Ptolemey, Porfiriy asarlariga ham sharh yozganligi ma’lum. Bulardan tashqari, Gippokrat, Epikur, Anaksagor, Diogen, Xrisipp, Aristipp, Suqrot, Zenon asarlaridan xabardor bo‘lgan hamda epikurchilar, stoiklar, pifagorchilar, kiniklar maktablarini yaxshi bilgan. Farobiy o‘rta asrda mukammal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratdi. U „Ilmlarning kelib chiqishi haqida“, „Ilmlarning tasnifi haqida“ nomli risolalarida o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tavsifi va tafsilotini bayon qilib berdi. Mutafakkir tabiat va inson organizmiga xos bo‘lgan tabiiy jarayonlarni o‘rganuvchi ilm sohalarini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Farobiy ilmlarni quyidagicha tasniflaydi: 1) til haqidagi ilm (grammatika, orfografiya, she‘riyat, to‘g‘ri yozuv va boshqalarni o‘z ichiga oladi); 2) mantiq (8 bo‘limdan iborat bo‘lib, tushuncha, muhokama, xulosa, sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalarni o‘z ichiga oladi); 3) matematika (arifmetika, geom., astronomiya, mexanika, optika, sayyoralar, musiqa va og‘irlik haqidagi ilmdan iborat); 4) tabiiy ilmlar, ilohiy ilmlar yoki metafizika; 5) shahar haqidagi ilm (siyosiy ilm, fiqh, pedagogika, axloqshunoslik va kalom kiradi). Farobiy fanlarni tasniflashda borliq xususiyatlarining tahlilidan va ularning fanda aks etishidan kelib chiqadi. Uning tasnifi, eng avvalo, tabiatni, tafakkur va nutqni, til va mantiqni o‘rganishga qaratilgan edi. Farobiyga ko‘ra, ilmlarning tasnifidan maqsad haqiqatni o‘rganish va tasdiqlashdan, uni yolg‘ondan farqlashdan iborat. Olimning fikricha, fanlar va umuman bilimlar borliqdan kelib chiqib, borliqni uzoq vaqt o‘rganish asosida to‘planib boradi. Turli ilmlar bir-birini inkor qilmaydi, balki o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Ular dunyoni idrok qilishga va insonlarni baxtsodatga erishishga qaratilgandir. Farobiyning fanlar tasnifida tabiiy va ijtimoiy fanlar o‘z vazifasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, matematika, tabiatshunoslik va metafizika ilmlari inson aqlzakovatini boyitishga xizmat qiladi, grammatika, she‘riyat va mantiq esa fanlardan to‘g‘ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to‘g‘ri tushuntirish, ya’ni akliy tarbiya uchun xizmat qiladi. Siyosat,

axloqshunoslik va pedagogikaga ovd bilimlar kishilarning jamoaga birlashuvi, ijtimoiy hayotning qonun va qoidalarini o‘rgatadi. Xullas, Farobiyning ilmlar tasnifi to‘g‘risidagi ma‘lumoti o‘rta asrda turli fanlarning rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, keyingi davrlarda yashagan olimlar uchun qo‘llanma vazifasini o‘tadi. **Farobiyning ontologik qarashlari.** Mutafakkir borliq muammosini „vujudi vojib“ va „vujudi mumkin“ ta‘limotidan kelib chiqqan holda tushuntiradi. Uningcha, „vujudi vojib“ barcha mavjud yoki paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsa, jism va moddalarning birinchi sababchisidir. Farobiy Xudoga birinchi sabab, birinchi mohiyat, deb ta‘rif beradi. Xudo birinchi sabab sifatida boshqa sabab va turtkiga muhtoj emas. U yaratadi, lekin boshqa narsalar tomonidan yaratilmaydi. Allohning zotiga qarama-qarshilik, ziddiyat, turli nuqsonlar, beqarorlik va boshqa jarayonlar xos emas. „Vujudi mumkin“ esa barcha yaratilgan, mavjud bo‘lgan va yaratilajak narsa va ashyolarni angatadi. Farobiy tabiat, ashyo va jismlar turli shakllari muayyan izchillik va zaruriyat bo‘yicha yuz beradigan tadrijiy jarayonlar asosida paydo bo‘ladi, deb hisoblaydi. Butun mavjudotni sabab va oqibat nuqtai nazaridan 6 daraja (sabab)ga bo‘ladi: Xudo — birinchi sabab; ikkinchi sabab esa osmon jinlari, so‘ng faol aql, jon (annafs), shakl (assurat), modda yoki ashyolar (almodda). Xudo—vojibul vujud, ya‘ni zaruriy mavjudlik bo‘lsa, qolganlari — vujudi mumkin, ya‘ni imkoniy mavjud narsalardir. Bular bir-biri bilan sababiy bog‘langan. Xudo, ya‘ni „vujudi vojib“ birinchi bo‘lib aql faolni yaratadi. Aql esa har bir sayyora xos aqlni yaratadi. Eng so‘nggi samoviy aql natijasida Yerdagi aql-ruh va barcha moddiy jismlar, ya‘ni 4 unsur: tuproq, havo, olov, suv paydo bo‘ladi. 4 unsurdan esa nabotot odami, hayvonot olami, inson zoti va notirik tabiat vujudga keladi. Organik olamga o‘simlik ruhi, hayvoniy ruh va insoniy ruh xosdir. Jismlarga harakat xos bo‘lib, ular o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan. Shunday qilib, Farobiyning borliq haqidagi ta‘limoti keyingi davrlarda hurfikrlilikning keng quloqch yozishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Farobiyning gnoseologik qarashlari, ya‘ni bilish haqidagi ta‘limoti ijtimoiy falsafiy fikr rivoji tarixida alohida o‘rinni egallaydi. Olimning bu boradagi fikrlari uning „Mantiq to‘g‘risida risolaga muqaddima“, „Mantiqqa kirish“, „Akl to‘g‘risida“, „Falsafaning ma‘nosi va kelib chiqishi“ va boshqa asarlarida taxlil qilib berilgan. Mutafakkir inson Yer yuzidagi oliy mavjudot ekanligini ta‘kidlab, uning qobiliyati, tevarakatdagi narsa va

hodisalarni idrok qilish kuchiga katta baho beradi. Farobiy o‘z asarlarida bilish shakllari, insonning ruhiy holati, jon va tananing o‘zaro munosabati, mantiqiy fikrlash to‘g‘risidagi mulohazalarini bildiradi. Uning aytishicha, insonning bilish, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a‘zolari hayot uchun zarur bo‘lgan qon bilan ta‘minlovchi markaz vazifasini bajaradi. Farobiy „Ilm va san‘atning fazilatlarini haqida“ kitobida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, aksidensiya (alaraz)dan substansiya (javhar)ga qarab borishni uqtiradi. Inson voqelikni idrok, sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy tafakkur, aql, nutq va boshqa vosita hamda usullar orqali bila oladi. Olim hissiy va akliy bilish mavjudligini, ular birbiridan farq qilishini ham aytib o‘tadi. Hissiy bilishda sezgi a‘zolari yordamida ashyolar, narsa va hodisalarning muayyan sifatlari bilib olinadi. Shu bilan birga, sezgi orqali narsa va buyumlarning muhim bo‘lmagan tomonlari ham idrok qilinadi. Aql orqali esa buyum sifatlarini mavhumlashtirish orqali uning mohiyati va umumiy tomonlari bilinadi. Farobiy aqlni, bir tomondan, ruhiy quvvat, ya‘ni tug‘ma, 2 tomondan, ta‘lim-tarbiyaning mahsuli ekanligini ta‘kidlaydi. Farobiy davlatni boshqarishda, qonunlarga amal qilishda, kishilararo munosabatda, axloq va xulqodob qoidalariga rioya qilishda, ta‘lim-tarbiyada aql hukmidan kelib chiqqan holda harakat qilish kerak, deb hisoblaydi. Farobiyning qimmatli fikrlaridan biri uning dunyoviy ruh va dunyoviy aql, ularning barhayotligi haqidagi ta‘limotning talqinidir. Mutafakkirning nazarida kishining ruhi va aqli o‘lganidan keyin yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki dunyoviy ruh va aql bilan qo‘shiladi. Demak, odamning ruhi va akli abadiylikka ketadi. Lekin ular hech vaqt qaytib kelmaydi va namoyon bo‘lmaydi. Ular tanani tashlab ketgandan so‘ng bir butunlikni tashkil etadi, aql va ruh yashash davomida orttirgan barcha ma‘naviy boylik to‘planib barhayot dunyoviy ruh va aqlni tashkil etadi. Mutafakkirning bu ta‘limotida dunyoning abadiyligi, inson zotining o‘lmasligi, inson bilimlari va aqlining uzluksizligi, insoniyat ma‘naviy madaniyatining taraqqiyoti haqidagi purma‘no g‘oyalar mavjud. Uning talqinida akliy bilish koinot akli yordamida haqiqiy ilmga aylanadi. Farobiy bilishning ratsional usulini asoslagan buyuk mutafakkirdir. U falsafiy taraqqiyotda, kuzatuv, bahsmunozara, bilish usullari, hissiy mushohada to‘g‘risida o‘z davri uchun e‘tiborga molik fikrlarni ilgari surdi. Olim mantiq ilmiga bag‘ishlangan bir necha risolalarning muallifidir. „Mantiq



ilmiga kirish“, „Mantiq to‘g‘risidagi risolaga muqaddima“, „She‘riyat san‘ati qonunlari haqida risola“, „Kataguriyas“ kitobi yoki „Kategoriyalar“, „Eysagoge“ kitobi yoki „Kirish“ va boshqa shular jumlasiga kiradi. Farobiy mantiq ilmining mohiyati va vazifasi haqida „Mantiq to‘g‘risidagi risolaga muqaddima“ asarida shunday deydi: „Bu shunday bir san‘atki, u har doim odam notiklikda adashib qoladigan bo‘lsa, to‘g‘ri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biror bir xulosa qilinadigan bo‘lsa, xatolarning oldini oluvchi narsalarni o‘z ichiga oladi. Uning aklga nisbatan munosabati grammatika san‘atining tilga nisbatan munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini to‘g‘rilagani kabi, u shuning uchun ham vujudga kelgan, mantiq ilmi ham xato kelib chiqishi mumkin bo‘lgan joyda tafakkurni to‘g‘ri yo‘ldan olib borish uchun aklni to‘g‘rilab turadi“. Farobiy mantiq ilmining shakllari: tushuncha, muhokama, xulosa, isbot va boshqalarni tahlil qiladi. U induksiya, deduksiya va sillogizm (qiyoslash) haqida batafsil ma‘lumot beradi. Olim o‘zining „Mantiq ilmiga kirish“ asarida esa hech qanday dalilisbotsiz bilinadigan fikrlarni 4 ga taqsimlaydi: maqbulot (ya‘ni maqbul bo‘lgan fikrlar); mashhurot (ya‘ni, mashhur bo‘lgan); mahsulot (ya‘ni sezish va idrok natijasida bo‘lgan); boshlang‘ich ma‘qulot (ya‘ni bilimtushunchalar). Farobiy ularning har birini mufassal tasvirlaydi. Olim mantiq ilmi va uning maqsad hamda vazifalari, voqelikni bilishdagi o‘rnini aniq ko‘rsatib bera olgan. Farobiyning mantiq ilmi haqidagi qarashlari hozir ham ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, ular oliy o‘quv yurtlarida qo‘llanma vazifasini o‘tamoqda. Farobiy dunyoqarashida ijtimoiysiyosiy va axloqiy fikrlar ham muhim o‘rinni egallaydi. Allomaning „Baxtsaodatga erishuv haqida“, „Fozil shahar aholisining fikrlari“, „Baxtsaodatga erishuv yo‘llari haqida risola“, „Buyuk kishilarning naqllari“, „Musiqqa haqida katta kitob“, „Fuqarolik siyosati“ va boshqa asarlari jamiyat va uni boshqarish, axloqd-oob va ta‘lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Farobiy Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari faylasuflari orasida birinchi bo‘lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqidagi ta‘limotni ishlab chikdi. O‘rta asr sharoitida jamiyat tabiiy ravishda kelib chiqqanligini, inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olishi mumkinligini asoslab berdi. „Har bir inson, — deydi Farobiy, — o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kiritmaydi, ularga ega

bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi... Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun insonlar ko‘paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi“. Shaharlar, uning fikricha, insonlarning jamoa bo‘lib uyushishining oliy shakli bo‘lib, unda insoniy barkamol bo‘lib yetishishi uchun zaruriy sharoitlar bo‘ladi. Forobiy insonlar tabiiy ehtiyoj natijasida o‘zaro birlashib, jamoani tashkil qilganligini alohida ta’kidlaydi. Farobiy ulug‘ gumanist, insonparvar faylasuf sifatida inson qadrqimmatini kamsituvchi va o‘zga mamlakatlarni bosib olishga asoslangan jamiyatga qarshi chiqadi. Mutafakkir odamlarni tinchtotuv va o‘zaro hamkorlikda yashashga, insonparvar bo‘lishga da’vat etadi. „Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir, shuning uchun odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari uchun o‘zaro tinchlikda yashamoklari lozim“, — deydi mutafakkir. Farobiyning e’tiborga sazovor fikrlaridan biri jamiyat taraqqiyotida geografik muhitning o‘rni masalasidir. Uning o‘ylashicha, kishilarning muayyan qududda yashashi ularning turmush tarzi, urfodatlari, axloqi, xulqodobiga ta’sir ko‘rsatadi, jamoaga birlashuviga yordam beradi. U mukammal jamiyat to‘g‘risidagi ta’limotida odamlarni turli guruhlariga ajratadi. Bunda u insonlarni qaysi dinga e’tiqod qilishiga, irqiga qarab emas, balki aqliy qobiliyati, bilimi, ilmfanga qiziqishini inobatga oladi. Forobiy din inson kamolotiga, ma’rifatga xizmat qilishi lozim, degan fikr tarafdori edi. Olimning dunyoqarashi diniy xurofotdan xoli bo‘lib, din erkinligiga asoslangan. U islom diniga, Qur’onga katta hurmat bilan qaradi. Uni kishilarni xulq va odobga o‘rgatuvchi manba deb bildi. Ayni vaqtda undan o‘z g‘arazli va shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanuvchi, jaholatga undovchilarning fikriga qo‘shilmadi. Farobiy shahardavlatlarni fozil va johilga ajratadi. Fozil shahar xalqini baxtsaodatga eltishi, uning boshlig‘i esa adolatli, yuksak axloqli va ma’rifatli, o‘zida butun ijobiy xislatlarni to‘plagan bo‘lishi lozim. Pekin, shunday shahar yoki mamlakatlar bo‘ladiki, ularning aholisi nafsga berilgan, butun fikrizikri boylik to‘plash bo‘ladi. Farobiy bunday shaharlarni johil shaharlar deb ataydi. Johil shaharlarning boshliqlari ham faqat boylik to‘plashga ruju qo‘ygan bo‘ladi. „Ulardan chiqqan rahbar ham, — deb ta’kidlaydi alloma, — rahbarlikni moldunyo ko‘paytirishda deb biladi. Shuning uchun

ham ular ertayukech moldunyo to‘plash harakatida bo‘ladi. Bunday rahbarlarning qo‘l ostida bo‘lgan shahar xalqida har turli buzuq odatlar, shahvoniy nafs, bir-birini ko‘rolmaslik, bir-birini talash, dushmanlik, nizojanjallar paydo bo‘ladi“. Farobiyning yozishicha, haqiqiy baxtga erishish uchun harakat qiluvchi, o‘zaro yordam qiluvchi, xalqini birlashtirgan shahar — fozil shahar hisoblanadi. Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan va birlashgan kishilar fazilatli jamoa bo‘ladi. Farobiy fikriga ko‘ra, davlatni idora etuvchi shaxs o‘zining fazilat va xulqodobi bilan ajralib turishi, xususan u 6 ta xislatni egallagan bo‘lishi; ya’ni adolatli va dono bo‘lishi, boshqalarga g‘amxo‘rlik qilishi, qonunlarga to‘la rioya etishi va qonunlarni yarata olishi, kelgusini oldindan ko‘ra bilishi kerak. Farobiyning talqinicha, fozil shaharlar yuqori madaniyatli bo‘ladi. Unda yashaydigan xalq o‘zi istagan kasbhunarni egallaydi. Bunday jamiyatda to‘la erkinlik va teng huquqlik hukm suradi. Farobiyning fozil jamoa haqidagi ta’limoti uning axloqiy kamolot va baxtsaodatga erishuv hamda insonparvarlik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. U o‘zining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlari markaziga insonni, uning maqsad muddaolarini o‘rganishni, axloqiy kamolot va baxtsaodatga erishuv yo‘llarini ko‘rsatishni qo‘yadi. Axloqiy kamolot deganda, xayrehsonli ishlar, go‘zal insoniy fazilatlarni tushunadi. Axloqiy kamolotga xalakit beruvchi salbiy xislatlarga dangasalik, bekorchilik, bilimsizlik, ongsizlik, kasbhunarsizlikni kiritadi. Farobiy aql, ilm va ma’rifatni baxtsaodatga erishishning asosiy vositasi deb bildi. Farobiy inson fazilatlarini tug‘ma va yashash jarayonida paydo bo‘ladigan fazilatlarga bo‘ladi. Olimning fikricha, tug‘ma fazilatlarga insonning o‘ta o‘tkir zehniligi, biror narsani bilishga o‘ta qobiliyatsizliligi kiradi. Lekin tug‘ma fazilatlar hayotda kam uchraydi. Asosiy axloqiy fazilatlarni odam yashash davomida egallaydi. Tug‘ma fazilatli odamlar ham tarbiyaga muhtoj. Agar unday odamni tarbiyalab va to‘g‘ri yo‘lga solib turilmasa, uning qobiliyati tezda so‘nib qolishi mumkin. Tug‘ma qobiliyat ham nisbiy tushunchadir. Ba’zi kishilar tug‘ma qobiliyatini ishga solib yaxshi natijaga erishsa, boshqalari yomon natijaga erishishi mumkin. Farobiy musiqani inson tarbiyasiga ta’sir qiluvchi omillardan biri deb billi. U musiqani insonga nafasat, estetik zavq bag‘ishlovchi, his-tuyg‘ulari va axloqini tarbiyalovchi muhim vosita, deb hisoblaydi. Mutafakkir „Musiqqa haqida katta kitob“ nomli ko‘p jildli asarida musiqqa nazariyasi va tarixi, turli musiqqa asboblari, kuylar

va ularning ichki tuzilishi, tovushlar, ritmlar, ohanglar haqida ma'lumot berdi; ilmi iyqo, ilmi ta'lif fanlariga asos soldi. Yuqoridagi asarida o'tmishdagi musiqashunos va tadqiqotchilar musiqa taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligini alohida qayd qiladi. Shuningdek, kuylar uyg'unligi, kuy ijro etish usullari haqida so'z yuritadi. Rivoyatlarda keltirilishicha, Farobiy yangi musiqa asbobi yaratgan, kuy bastalagan, mohir sozanda sifatida nom chiqargan. Farobiyning aytishicha, musiqiy tasavvurlar inson ruhining eng nozik joyidan qaynab chiqib, ohang holida sezgi quvvatlariga ta'sir qiladi. Farobiyning dunyoqarashi, uning jamiyat va axloq to'g'risida yaratgan yaxlit ta'limoti ilk o'rta asrlar va keyingi davrlarda ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy fikr rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning qarashlari Sharq mamlakatlariga keng yoyildi. O'rta asr mutafakkirlari Ibn Xallikon, Ibn alKiftiy, Ibn Abi Usabi'a, Bayhaqiy, Ibn Sino, Ibn Boja, Umar Xayyom, Beruniy, Ibn Rushd, Ibn Xaldun va boshqa ta'limotini chuqur o'rganib, uni yangi g'oyalar bilan boyitganlar. Buyuk mutafakkir va shoirlardan Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Dovoniy Farobiyning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy ta'limotidan bahramand bo'lganlar.

#### Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, dunyo fani va madaniyati, uyg'onish davrining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan Forobiy qadimgi yunon fani va madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o'rnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, balki kishilik tarixida o'chmas iz qoldirgan yunon olimlarining, ko'proq Arastuning asarlarini targ'ib qildi, ularning ko'plarini arab tiliga tarjima qildi. Antik dunyo olimlarining qoldirgan meroslarini to'la o'rganmasdan turib, fan va madaniyatni rivojlantirish mumkin emasligini yaxshi tushungan Abu Nasr Forobiy yunon mutafakkirlarining "qul"iga aylanib qolmadi, balki ko'p qirrali olim va ijodkorlarning davomchisi, o'z davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida o'zini namoyon qildi. Forobiy pedagogik ta'limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o'z mohiyati bilan ijtimoiy, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi. [Dunyo fani va madaniyati](#), uyg'onish davrining ko'zga

ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan Forobiy qadimgi yunon fani va madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o'rnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, balki kishilik tarixida o'chmas iz qoldirgan yunon olimlarining, ko'proq Arastuning asarlarini targ'ib qildi, ularning ko'plarini arab tiliga tarjima qildi. Antik dunyo olimlarining qoldirgan meroslarini to'la o'rganmasdan turib, fan va madaniyatni rivojlantirish mumkin emasligini yaxshi tushungan Abu Nasr Forobiy yunon mutafakkirlarining "qul"iga aylanib qolmadi, baliki ko'p qirrali olim [va ijodkorlarning davomchisi](#), o'z davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida o'zini namoyon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., “O'zbekiston”,
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., “O'zbekiston”, 2011. – 440 bet.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., “Ma'naviyat”, 2008. –175 bet.
4. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. T., O'zbekiston, 2006.–121
5. Abdullayeva M.N., Abdurashidov M. va boshqalar. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. –T.: Sharq, 2004. –345
- 6 .Falsafa Nazarov Taxriri ostida T 2008.
7. Falsafa ensiklopedik lug'at. –T., “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, –344 b.
8. Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy Toshkent “A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi”-2002.
9. Jaxon falsafasi tarixidan lavhalar. 1-kitob T-2004.